

NAVO MAQOMINING O‘ZIGA XOSLIK JIXATLARI

Safarova Shaxzoda Shokirjon qizi
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI
Maqom cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shashmaqomning 3-maqom turkumi bo‘lmish Navo maqomi, ashula va cholg‘u qismlari tarkiboti, ushbu maqom asosida yaratilgan ashula va cholg‘u yo‘llari haqida so‘z boradi. Magistrant o‘zining imkon darajasida ushbu mavzuni yoritib berishga harakat qilgan.

Аннотация: В этой статье рассказывается о статусе Наво, 3-й статусной серии Шашмакама, продвижении певческих и инструментальных партий, а также песнях и инструментальных треках, созданных на основе этого. Магистрант постарался объяснить эту тему в меру своих возможностей.

Annotation: This article talks about the Navo status, the 3rd status series of shashmaqam, the promotion of singing and instrumental parts, and the songs and instrumental tracks created on the basis of this status. The graduate student tried to explain this topic to the best of his ability.

Kalit so‘zlar: Navo, cholg‘u, ashula, shashmaqom, sho‘ba, ohang.

Ключевые слова: Наво, инструмент, песня, шашмаком, ветка, мелодия.

Keywords: Navo, instrument, song, shashmaqom, branch, melody.

Sharq xalqlari madaniyatida qadim zamonlardan beri mavjud va bizgacha yetib kelayotgan maqomlar xalqning bebaho mulkidir. Maqomlar bu xalqlarning o‘ziga xos musiqa boylklari bo‘lib, ustoz sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida sayqallanib mustaqil janr sifatida yuzaga kelgan va O‘rta Osiyo musiqa madaniyatining muhim manbasidir. Maqomlarning Sharq xalqlari musiqa merosida o‘rni nihoyatda beqiyos. Shu sababli ham maqomlar masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etib, Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.

IX-XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar va tarixiy-adabiy manbalarning ko‘pchiligida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Maqomlar Sharq xalqlari musiqasining asosini tashkil etadi. Maqomlarning amaliy hamda nazariy tomonlari bor. Ularning nazariy jihatlari IX-XVII asrlarda yashab ijod etgan al-Kindiy, Forobiy, Xorazmiy, ibn Sino,

Urmaviy, Sheroziy, Marog‘iy, Jomiy, Husayniy, Kavkabiyy, Darveshali Changiy singari buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan. Maqomlarning amaliy tomonlarini esa, ustoz sozanda va xonandadan shogirdga og‘zaki o‘tib, bizgacha yetib kelgan. Maqomlarning yuzaga kelishi inson tafakkurining juda uzoq davrlarda olib borgan izlanishlarining samarasidir deyish mumkin.

“Navo” maqomi Shashmaqomdagi uchinchi maqom. Uning tarixi o‘tmish zamonlarga borib taqaladi. “Navo” arabcha so‘z bo‘lib, “yoqimli kuy, ohang” degan ma‘noni anglatadi. Ma‘lumingizkim, buyuk bobomiz hazrat Alisher Navoiy ham o‘z taxallusini shu atamaga monand qo‘llagan, “navo chekuvchi, kuylovchi” ma‘nolarini anglatgan.

O‘tmish musiqa risolalarida ushbu Navo maqomi “Nag‘mai Dovudiy”, ya‘ni “Dovud payg‘ambar kuyi” deb ham atalgan.

Markaziy Osiyo, jumladan Buxoro musiqiy muhitida Navo maqomi, yuqorida qayd etilganidek, Dovud alayhissalom timsoli bilan bog‘lanadi. Bu borada Darvish Ali risolasida quyidagi naql mavjud: “Navo maqomi Hazrat Dovud alayhissalomdan qolgan. Naqldurki, qachon Hazrat Dovud alayhissalom lahn (alhon, ilhon) qilsalar, muborak halqumidan yetmish xil lahn chiqar edi. Qushlar, vahshiylar, yirtqichlar kelar, behush bo‘lar va yig‘ilar edilar. O‘sha maqom Navo bo‘lgan”.¹

“O‘n ikki maqom”da Navo maqomi ikkinchi cholg‘u va ashula bo‘limlaridan iborat. U ashula bo‘limi hamda 1 va 2-guruh sho‘balaridan tarkib topgan.

“Navo maqomi 8 ta cholg‘u qismiga ega bo‘lib, Tasnifi Navo, Tarjei Navo, Garduni Navo, Nag‘mai Orazi Navo, Muxammasi Navo, Muxammasi Bayot, Muxammasi Xusayniy, Saqili Navo deb nomlanadi. Tasnif maqomning bosh kuyi - Tarje‘ qaytarma ohanglardan iborat kuy va u Gardun, Muxammas va Saqil doira usullarining ifodasi. Nag‘mai Orazi Navo, Xusayniy bastakorlar taxalluslari”².

Navoning cholg‘u yo‘llari ohanglarga boy, tez ta‘sirchan kuylardan tuzilgan, cholg‘u qismida usullar o‘zgarsada, birin-ketin kelgani uchun bir-biriga bog‘liq. Navo maqomi asosida qator cholg‘u kuylari, surnay navo yo‘llari yaratilgan.

Navo maqomining ashula bo‘limi 1-guruh sho‘balari Saraxbor, Talqin, uchta Nasr va bitta Ufar qismlaridan tarkib topgan. 1-guruh sho‘balar – Saraxbori Navo, Talqini Bayot, Nasr sho‘balari – Nasri Bayot, Orazi Navo, Xusayniy Navo deb nomlanadi va o‘zlarining tonlariga ega. Ularning birinchisi Savti Navo “Navo”

¹ Darvish Ali Changiy. Risolai musiqiy. O‘zR FASHI. Qo‘lyozma №468. B. 10 a.

² Rajabov I. Maqom asoslari. T. 1992-y. 59-b.

maqomi ohanglari ta'sirida yuzaga kelgan. Chapandoz doira usulida ijro etilgani uchun "Chapandozi Navo" deb nomlanadi. Ustoz Yunus Rajabiy unga Savt doira usulini qo'shib, kuy yo'lini saqlagan holda ashula yo'lini olgan. Natijada Savti Navo to'ldirilib, uning 6 qismli shakli yuzaga kelgan. Ular Savti Navoning bosh ashula yo'li ijro etilgandan so'ng ijro etiladi. "Chapandozi Savti Navo" va uning Talqinchasi, Qashqarchasi va Savti Navoning mashhurliigi shundaki, ushbu asosda barcha ijrolarda sevib aytiladigan "Avji Turk" yuzaga kelgan.

Navo maqomining 2-guruhiga kirgan mashhur sho'balardan biri "Mo'gilchai Navo" deb nomlanadi. Bundan tashqari, Talqincha va Qashqarcha ashula yo'llari mavjud bo'lib, ular turkum sifatida ijro etiladi. Navo maqomining 2-guruhiga kiruvchi uchinchi maqom "Mustaxzodi Navo" deyiladi. Unda ham Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar qismlari mavjud. "Mustazod" she'r vazni ifodasi bo'lib, arabchada "orttirilgan" ma'nosini anglatadi. Mustaxzodi Navoning kuy yo'lida ham she'r shaklidagi kabi orttirilgan kuy bo'lagi mavjud bo'lib, har bir kuy jumlasini ketidan uni yakunlab boruvchi kichik kuy bo'lagi qo'shiladi. Mustaxzodi Navoning 1-xati daromad, 2-xati miyonxat, 3-4 xatlari Bayot namudi, 5-xati Navo namudi, 6-xati tushirimdan iborat. Mustaxzodi Navoning bosh yo'lidan so'ng uning shoxobchalari – Talqinchasi, Qashqarchasi, Soqiynomasi, Ufari o'qiladi.

Ko'rinib turibdiki, Navo juda yirik maqom turkumi bo'lib, uning ohanglari asosida maqomot tarixida juda ko'p kuy, ashulalar, shuningdek, surnay yo'llari, Fargona, Toshkent, Tojikiston vohalarida mashhur bayot ijrolari va turkumlari yaratilgan va sevib ijro etilgan. Bayot yo'llari shu qadar keng tarqalganki, uning asosida ko'plab variantlar yaratilgan va bastakorlar izlanishlari davom etmoqdaki, kelgusida ham ko'plab musiqiy asarlar yaratilishi begumon.

"Navo" maqomining tuzilishi

Cholg'u bo'limi:

1. Tasnifi Navo
2. Tarjei Navo
3. Garduni Navo
4. Nagmai Orazi Navo
5. Muxammasi Navo
6. Muxammasi Bayot
7. Muxammasi Xusayniy
8. Saqili Navo

Ashula bo'limi

Birinchi guruh sho'balari:

1. Saraxbori Navo va Taronalari I, II
2. Talqini Bayot va Taronasi
3. Nasri Bayot va Taronalari I, II
4. Orazi Navo va Taronalari I, II, III
5. Xusayniy Navo
6. Ufari Bayot va suporish

Ikkinchi guruh sho‘balari

1. Savti Navo, shoxobchalari:
Chapandozi Savti Navo, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar.
2. Mo‘g‘ilchai Navo, shoxobchalari: Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar.
3. Mustaxzodi Navo, shoxobchalari: Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar.

Shashmaqom tarkiboti nihoyatda o‘ziga xos serqirra va murakkab tarkibotdir. Zero, har bir maqom badiiy asar sifatida o‘ziga xos sifatlar bilan boyitilgan. Va bu jihatlar uning lad tizimi va tarkibotida ham o‘z ifodasini topadi. Masalan, amaldagi Rost, Navo, Dugoh va Segoh maqomlarida uchtdan yordamchi lad tuzilmalari mavjud. Navo maqomining mushkilotida asosiy Navo va yordamchi Bayot, Husayniy Muhammasi va Oraz Muhammasi deb nomlanadi.

Shuni ham aytishimiz kerakki, Navo maqomi asosida yaratilgan ko‘plab ashula va cholg‘u yo‘llari mavjud. Ularga (Bayot sho‘balari asosida yaratilgan Bayot – 1,2,3,4,5) va cholg‘u (surnay, tanbur, dutor) yo‘llari mavjud. R.Glier, T.Sodiqov (Layli va Majnun” operasi va b.), M.Burhonov (“Alisher Navoiyga qasida”), M.Ashrafiy (“Dilorom” operasi), M.Mahmudov (“Navo” simfoniyasi) va b. Kompozitorlar Navo maqom yo‘llaridan unumli foydalanishgan. Navo atamasi va shu nomli mumtoz musiqa asarlari tojik, turkman, uyg‘ur, eron, ozarbayjon, arab, turk xalqlari musiqa merosida keng o‘rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova M. An‘anaviy yakka xonandalik. – Toshkent , 2019
2. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San’at, 2006
3. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent, 2014
4. Rajabiy Yu. Shashmaqom (O‘zbek maqomlari). – Toshkent: YUNESKO, 2007.